UO‘K 81’33

LINGVISTIK EKSPERTIZA: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY TATBIQ

B.R. Ahmedov

Jahon tilshunosligida asosiy e’tibor tilning funksionallashuviga qaratilayotgani muloqot jarayonini ekstralingvistik hamda paralingvistik vositalar bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq qilish kuchayishiga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan nutqni sotsiologik, psixologik, lingvistik tomonlarini yoritish hamda lingvistik ekspertizadan o‘tkazish zamonaviy tilshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada lingvistik ekspertizaning vazifalari va aspektlari misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *sud lingvistikasi, psixolingvistik aspekt, lingvostatistik aspekt, ekspert, nutqiy shtamp, stereotip.*

Сосредоточение внимания мировой лингвистики на функциональном аспекте языка приводит к росту изучения процесса коммуникации в его неразрывной связи с экстралингвистическими и паралингвистическими средствами. С этой точки зрения освещение социологических, психологических и лингвистических аспектов речи и проведение лингвистической экспертизы имеет большое значение для современной лингвистики. В статье на примерах иллюстрируются задачи и аспекты лингвистической экспертизы.

Ключевые слова: *судебная лингвистика, психолингвистический аспект, лингвостатистический аспект, эксперт, речевой штамп, стереотип*.

Lingvistik masalalarni chuqur tahlil qilish, til tuzilishi, funksiyalari va qo‘llanilishiga oid murakkab masalalarni hal qilishda lingvistik ekspertiza atamasi qo‘llaniladi. Lingvistik ekspertiza matn, nutq yoki yozuvlarning grammatik, fonetik, leksik va semantik jihatlarini o‘rganish, noma’lum tilda yozilgan yoki og’zaki ifoda etilgan materiallarni aniqlash va tarjima qilish, sud ishlarida nutq yoki yozuvlarning haqiqiyligini, ularning muallifligini aniqlash va boshqa huquqiy masalalarni hal qilish, tarjima sifatini baholash, asliy matnga mosligini tekshirish, reklama, media, ta’lim yoki texnologiya sohasida tilni samarali qo‘llash bo‘yicha maslahat berish kabi ishlarni o‘z ichiga oladi.

Lingvistik ekspertiza ko‘pincha sud-huquqiy jarayonlarda, tadqiqot loyihalarida yoki kompaniyalar tomonidan tilga oid strategiyalarni ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Obyekt sifatida ma’lum bir til birliklari, muayyan yozma yoki og‘zaki ko‘rinishdagi bayonot va matnlarni olish mumkin.

A.Baranov o‘zining asarida lingvistik ekspertiza xususida quyidagilarni aytib o‘tadi: “Lingvistik ekspertiza – muhim faktlarni aniqlashga va mutaxassisga qo‘yilgan savollarga javob olishga qaratilgan nutqiy faoliyat mahsullarini o‘rganish jarayoni hisoblanadi. Lingvistik ekspertiza obyekt haqida tavsiflovchi bayonotlarning to‘g‘riligini (noto‘g‘riligini) yoki mumkinligini (mumkin emasligini) aniqlashga imkon beradi. Lingvistik ekspertiza amaliy tilshunoslikda lingvistik obyektlarni o‘rganish uchun ishlab chiqilgan lingvistik nazariyalar va usullarga asoslanadi” [1. B. 5].

Ekspertiza jarayoni, albatta, ariza beruvchining arizasidan keyin ma’lum bir tartiblarda olib boriladi. Andijon davlat universitetida ish olib borayotgan ekspertiza markazi faoliyatidan kelib chiqib, lingvistik ekspertiza quyidagi tartiblarga ega deyishimiz mumkin:

1. *Ekspertizaga ariza berish*. Avvalo, tegishli tashkilot yoki shaxslar ekspertiza o‘tkazish uchun ariza beradi. Bu ariza, odatda, sudga yoki ekspertiza institutiga yuboriladi. Arizada ekspertizaning maqsadi va qanday savollarga javob berish kerakligi ko‘rsatiladi.

2. *Ekspertni tayinlash*. Ariza asosida ekspertiza o‘tkazish uchun lingvist ekspert tayinlanadi. Ekspert sifatida, odatda, filologiya yoki boshqa tegishli soha mutaxassislari jalb qilinadi. Ular tajribali va malakali bo‘lishi kerak.

3. *Materiallar bilan tanishish*. Ekspert tayinlangandan so‘ng, u ekspertizaga taqdim etilgan materiallar bilan tanishadi. Bu materiallar hujjatlar, xatlar, shartnomalar, guvohlarning so‘zlari yoki boshqa tilga oid materiallar bo‘lishi mumkin. Ekspert bu materiallarni chuqur tahlil qiladi.

4. *Tahlil va izohlar*. Ekspert o‘z ishini boshlashdan oldin materiallarni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Bu tahlil so‘zlarning ma’nosini aniqlash, grammatik jihatlarni ko‘rib chiqish, kontekstni tahlil qilish kabi lingvistik jihatlarni o‘z ichiga oladi.

5. *Xulosa yozish*. Ekspert materiallarni tahlil qilib, xulosalar chiqaradi. Xulosa ekspertiza talablariga muvofiq rasmiy hujjat shaklida tayyorlanadi. Bu xulosada ekspertning tahlili, aniqlangan kamchiliklar yoki xatolar, tilning kontekstual talqini va boshqa muhim jihatlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

6. *Xulosani taqdim etish.* Ekspertiza xulosasi sud yoki boshqa tegishli tashkilotga taqdim etiladi. Agar ish sud jarayonida bo'lsa, ekspert xulosasi sudda taqdim qilinadi va zarur bo'lsa, ekspertga savollar berilishi mumkin.

7. *Ekspertizani yakunlash*. Ekspertizaning yakuniy bosqichi – ekspertlarning barcha materiallarni tahlil qilib, xulosalarni rasmiy ravishda taqdim etishi va o'z ishini yakunlashi. Agar qo'shimcha savollar yoki aniqliklar kerak bo'lsa, ekspert yana izoh berishi mumkin.

Lingvistik ekspertiza predmeti matnning semantik mazmunini, matndagi sud-tibbiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni aniqlashdan iborat.

Og'zaki haqorat holatlari, shuningdek, ekstremistik yo'nalishdagi jinoyatlar bo'yicha lingvistik tadqiqotlar bugungi kunda eng dolzarb hisoblanadi.

O'rganiluvchi obyekt: axborot materiallari; nutq aloqalari.

Vazifalar. Mutaxassislarning asosiy vazifasi matnning semantik mazmunini o'rganishdir. Shu bilan birga, masalan, haqorat qilish holatlarida lingvistik ekspertiza doirasida hal qilinadigan masalalarga quyidagilar kiradi:

– salbiy baho ifodalovchi birliklarni topish;

– bu til birliklari kimga nisbatan qo'llanilganligini aniqlash;

– salbiy baho ifodalovchi birliklarning darajasini aniqlash;

– mutaxassis oldiga qo'yilgan talabdan kelib chiqib, matnni turli aspektda o'rganish.

Lingvistik ekspertiza va uning obyekti xususida o'zbek olimlari ham o'z izlanishlarida turli xil ma'lumotlar keltirganlar. Xususan, I.Azimov, Z.Ro'ziyev, F.Bobojonovlarning "O'zbek tilida lingvistik ekspertiza" nomli qo'llanmasida shunday fikr bildiriladi: "Lingvistik ekspertiza nutqiy faoliyat mahsuli – og'zaki va yozma matnlar ustida o'tkaziladi. Nutqiy faoliyat mahsullari ekspertiza uchun turli shakllarda taqdim etiladi:

– og'zaki matnlar (videoyozuvlar, audioyozuvlar);

– yozma matnlar (kitoblar, qo'llanmalar, tarjimalar, qo'lyozma yoki chop etilgan qog'ozlar);

– ijtimoiy tarmoqlardagi og'zaki va yozma muloqotlarning elektron shakli;

– OAV materiallari (gazeta, jurnal va b.);

– siyosiy yoki rasmiy arboblarning bayonotlari;

– rasmiy yoki norasmiy suhbatlar;

– og'zaki matn bo'yicha xolis guvohlarning ko'rsatmalari va boshqalar" [2. B. 6–7].

Jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarda obyekt sifatida postlar, izohlar yoki shaxsiy yozishmalar rasm (skrinshot) ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish turli maqsadlar va usullarga qarab bir nechta yo'nalishga bo'linadi. Ingliz tilshunoslari L.Solan va P.Tiersmaning "Tilshunoslik va huquq bo'yicha Oxford qo'llanmasi"da, o'zbek tilshunoslaridan I.Azimov, Z.Ro'ziyev, F.Bobojonovlarning lingvistik ekspertiza bo'yicha ishlarida ekspertiza yo'nalishlari haqida to'xtalib o'tilgan. Shundan kelib chiqib, quyida ekspertizaning asosiy turlarini keltirib o'tamiz:

1. *Avtorlik ekspertizasi* (muallifni aniqlash): yozishmalar muallifini aniqlash yoki tasdiqlash. Bu turdagi ekspertizada til uslubi, leksik xususiyatlar, grammatika va punktuatsiya, o'ziga xos til birliklarini tahlil qilish maqsad qilib olinadi.

2. *Ma'no va kontekst tahlili:* yozishmalarda ifodalangan fikr va ma'noning aniq tushunilishini ta'minlash. Bu ekspertiza turida matnning semantikasi, konteksti va pragmatik jihatlari tahlil qilinadi.

3. *Psixolingvistik ekspertiza:* muallifning psixologik holati, niyati va shaxsiy xususiyatlarini aniqlash. Psixolingvistik ekspertiza til birliklarining hissiy va psixologik tahlili yuzasidan amalga oshiriladi.

4. *Qo'rqitish yoki tahdidni tahlil qilish:* yozishmalarda qo'rqitish, tahdid yoki haqorat borligini aniqlash. Bu turdagi ekspertizada baholovchi va agressiv leksikani aniqlash, tilning intensivligi va kontekstini o'rganish vazifalari qo'yiladi.

5. *Soxtalashtirishni tekshirish:* yozishmalarning asl yoki soxtalashtirilganligini aniqlash. Yuqoridagi ekspertiza o'z oldiga til uslubi va leksik tahlil orqali hujjatlarning o'zaro mosligini tekshirishni maqsad qilib oladi.

6. *Huquqiy mazmundagi tahlil:* yozishmalarda qonunbuzarlik, jumladan, tuhmat, haqorat yoki noqonuniy da'vatlar mavjudligini aniqlash. Bunday ekspertiza obyektni lingvistik usullar orqali huquqiy jihatdan tahlil qiladi.

7. Til xususiyatlarini va uslubiy jihatlarni tahlil qilish – yozishmalarning muloqot maqsadlariga mosligini aniqlash. Bunday ekspertizada shaxsiy yoki professional uslubni aniqlash asosiy vazifa hisoblanadi.

8. *So'zlashuv tilining tahlili:* ijtimoiy tarmoq yozishmalariga xos qisqartmalar va muloqot odatlarining tahlili. Mazkur ekspertizada emojilar va qisqartmalarning tahlili asosida ish olib boriladi.

Bu turlar ijtimoiy tarmoqlarda yozishmalarning turli ko'rinishlarini lingvistik ekspertiza nuqtayi nazaridan o'rganishga imkon beradi. Maqsadga qarab, bir nechta usulni birlashtirish ham mumkin bo'ladi.

Tilning aniq va tushunarli bo'lishi yuzasidan ham ekspertiza o'tkazilishi mumkin. Ekspertiza hujjatlarda yoki shaxsiy qaydlarda foydalanilgan tilning aniq va

tushunarli ekanligini baholaydi. Misol uchun, agar biror hujjatda foydalanilgan til noma'lum yoki chalkash bo'lsa, ekspert bu nuqtani aniqlab beradi.

Ekspertiza tilning tinglovchi yoki auditoriyaga mosligini ham o'rganishni maqsad qilib oladi. Reklama, shartnomalar yoki boshqa hujjatlardagi til auditoriya uchun to'g'ri, tushunarli bo'lishi lozim. Lingvistik ekspertiza shu asosda mazmunning to'g'ri talqinini ta'minlaydi.

So'z va iboralarni semantik tahlil qilish ham ekspertizaning bir maqsadi hisoblanadi. Sud jarayonida noto'g'ri so'zlarni aniqlash, ularning haqiqatdagi talqini va ma'nosini tushuntirishda lingvistik ekspertiza zarur bo'ladi. Bu, masalan, so'zlarning ko'p ma'nolarini aniqlashda muhimdir.

Hujjatlarning qalbaki ekanligini aniqlash lingvistik ekspertizaning eng muhim vazifalaridandir. Ba'zi hollarda lingvistik ekspertiza yordamida so'zlar o'zgartirilganligini ham aniqlash mumkin.

Tuhmat, haqorat kabilarni aniqlash eng keng tarqalgan ekspertiza turlaridan sanaladi. Lingvistik ekspertiza yolg'on ma'lumot bilan biror shaxsning obro'siga zarar yetkazish yoki biror kishiga nisbatan haqoratomuz, tahqirlovchi so'zlar ishlatish kabilarni ham tekshiruvdan o'tkazadi.

Tuhmat yoki haqoratni aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

Mazmun: Agar biror kishi boshqa shaxsga nisbatan yolg'on ma'lumot tarqatayotgan bo'lsa, bu tuhmat, agar so'zlar tahqirlovchi bo'lsa, bu haqoratga kiradi.

Kontekst: Biror so'z yoki ibora qanday vaziyatda aytilganini ham ko'rib chiqish zarur. Ba'zi so'zlar bir muayyan holatda kulgili bolishi mumkin, lekin boshqacha vaziyatda haqorat bo'lib qolishi mumkin.

Maqsad: Tuhmatning maqsadi odatda biror kishining obro'sini tushirish, haqorat esa shaxsiy huquq va sha'nini kamsitish uchun ishlatiladi.

Misol uchun, tuhmat: "U moliyaviy jinoyatlarda ishtirok etgan, lekin bu isbotlanmagan; haqorat: "Sen bechora odamsan, hech kim seni yaxshi ko'rmaydi!"

Haqorat, so'kinish so'zlari kishining obro'sini tushirish maqsadida aytilsa-da, lekin o'z o'rnida bu so'zlarning ham darajasini aniqlash mumkin. So'kinish so'zlarining darajasi ularning tahqirlovchi yoki haqoratli xarakteriga, shuningdek, aytilgan so'zlarning o'ziga xosligi va kontekstiga qarab farq qiladi. So'kinish so'zlari odatda biror kishiga nisbatan salbiy hissiyotlarni ifodalaydi va ular turli darajalarda bo'lishi mumkin. Aytib o'tish lozimki, so'kinish so'zlari va haqoratlar kontekstga ham juda bog'liq. Ba'zi hollarda so'zlar hazil yoki o'yin sifatida aytilishi mumkin, lekin boshqa holatlarda ular haqorat bo'lishi mumkin.

Umuman, ekspertiza o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra turli aspektlarda amalga oshirilishi mumkin. Bunda qo'yilayotgan talabdan kelib chiqib, ekspertlar o'z oldiga maqsad qo'yadi va buning uchun zarur aspekt aniqlab olinadi. I.Azimov, Z.Ro'ziyev, F.Bobojonovlarning "O'zbek tilida lingvistik ekspertiza" asarida lingvistik ekspertiza quyidagi aspektlarda amalga oshirilishi ta'kidlab o'tilgan: 1) sof lingvistik aspektda; 2) psixolingvistik aspektda; 3) sud lingvistikasi aspektida; 4) lingvostatistik aspektda; 5) gender lingvistikasi aspektida.

Ekspertiza jarayonini yana ham aniqroq tushunish uchun sud lingvistikasi aspektida olib borilgan ishdan namuna keltiramiz. Birinchi navbatda, lingvistik ekspertiza jarayonidan oldin ekspertlar oldiga bir qator savollar qo'yiladi va ekspertlardan shu savollarga aniq, to'g'ri javob berish talab qilinadi.

Namuna sifatida "Facebook" ijtimoiy tarmog'idagi izoh ("komment")lardan foydalanildi. Albatta, bu yerda "Facebook" messenjeridan olingan izohlarning mualliflini ochiqlamaymiz.

"Buni farosati ham yo'q", "U iflos bo'lsa boshqalarda nima gunoh" (matn o'zgarishsiz olingan). Ushbu izoh ekspertlar oldiga lingvistik ekspertiza uchun rasm ko'rinishidagi dalil orqali beriladi va ekspertlar oldiga bir qancha savollar tashlanadi:

1-savol: Internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "xxx" nomli foydalanuvchi postidan olingan suhbatlarda shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash mazmuni mavjudmi?

2-savol: Internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "X" nomli guruhdan olingan suhbatlarda shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash mazmuni mavjud bo'lsa, ular kimga qarata aytilgan?

3-savol: Internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "xxx" nomli foydalanuvchi postidan olingan suhbatlarda tuhmat qilish mazmuni mavjudmi?

4-savol: Internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "xxx" nomli foydalanuvchi postidan olingan suhbatlar boshqa-boshqa joylardan olingan bo'lishi mumkinligi ehtimoli yuzasidan ushbu taqdim qilingan suhbatlar bir-birining mantiqan davomi hisoblanadimi?

Ekspertlar xulosasi

1-savol: Internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "xxx" nomli foydalanuvchi postidan olingan suhbatlarda shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash mazmuni mavjudmi?

Xulosa: internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "xxx" nomli foydalanuvchi postidan olinib, taqdim etilgan suhbatlarda:

1."xxx" nomli profil tomonidan yozilgan matnlarda

shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash mazmuni mavjud.

2."xxx" nomli profil tomonidan yozilgan:

"U iflos bo'lsa boshqalarda nima gunoh matnida birgina *"iflos" so'zi haqorat mazmunini beradi. "*IFLOS – (arab tilidan o'zlashgan: qashshoqlik, notavonlik; hech narsasi qolmaganlik; omadsizlik; obro'-e'tibori qolmaganlik). Nopok narsalar bilan bulg'angan; bulg'anch" [4. B. 223]. "Shunday odamga nisbatan haqoratni bildiradi; yaramas, razil" [4. B. 224].

3."xxx" nomli profil tomonidan yozilgan:

"Buni farosati ham yo'q" matnida "farosati ham yo'q" jumlasi haqorat mazmunini beradi. "BEFAROSAT [be+-farosat] – fahm-u farosati yo'q, uncha-munchaga farosati yetmaydigan, betamiz" [3. B. 242].

2-savol. Internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "xxx" nomli foydalanuvchi postidan olingan suhbatlarda shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash mazmuni mavjud bo'lsa, ular kimga qarata aytilgan?

Xulosa: Internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "xxx" nomli foydalanuvchi postidan olingan suhbatlarda:

1."xxx" nomli profil tomonidan yozilgan matnlarda shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash mazmuni mavjud.

2."xxx" nomli profil tomonidan yozilgan matnlarda, xususan, "*U iflos bo'lsa" jumlasida "X – iflos"* degan hukm yo'q, balki (mabodo yoki agarda) "*U iflos bo'lsa"* hukmi bor, xolos. Bu o'rinda *iflos* so'zi "X"ga nisbatan haqorat sifatida aytilmagan.

3."xxx" nomli profil tomonidan yozilgan:

"Buni farosati ham yo'q" matnidagi "*farosati ham yo'q*" jumlasi haqorat mazmunini beradi. BEFAROSAT **–** [be+farosat] - Fahm-u farosati yo'q, uncha-munchaga farosati yetmaydigan, betamiz [3. B. 242]**.** "Buni" – ko'rsatish olmoshi (murojaat shakli) va "farosati" so'zidagi "i" egalik olmoshi **"X"**ga ishora qiladi, ya'ni, *"Buni farosati ham yo'q"* jumlasi *"X"*ga nisbatan aytilgan.

3-savol. Internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "xxx" nomli foydalanuvchi postidan olingan suhbatlarda tuhmat qilish mazmuni mavjudmi?

Xulosa: O'zbek tilida "tuhmat – *arabcha ayblash, ayblov. Birovni ayblash yoki qoralash maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo; bo'hton"* [5. B. 226] ma'nosini ifodalaydi. 3-savolga javob berishda faqat taqdim etilgan haqoratli so'zlar yozilgan foto (skrinshot)ga tayanib, *tuhmat qilish mazmuni mavjud yoki mavjud emasligi* haqida xulosa qilish to'g'ri bo'lmaydi. Haqoratli so'zlar yozilgan izohlarda keltirilgan so'zlarning asosli yoki asossiz ekanini bilish uchun "xxx"ning shaxsi, uning faoliyatiga oid ma'lumotlarni bilish talab etiladi.

4-savol. Internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "xxx" nomli foydalanuvchi postidan olingan suhbatlar boshqa-boshqa joylardan olingan bo'lishi mumkinligi ehtimoli yuzasidan ushbu taqdim qilingan suhbatlar bir-birining mantiqan davomi hisoblanadimi?

Xulosa: Internet tarmog'ining "Facebook" messenjerida ochilgan "xxx" nomli foydalanuvchi postidan olingan suhbatlar bir-birining mantiqan davomi hisoblanadi.

Bu ekspertiza jarayonining ko'rinishi hisoblanadi. Bundan tashqari yozishmalarni turli tomondan tahlildan o'tkazish mumkin. Bu ekspertlar oldiga qo'yilayotgan talab va savollardan kelib chiqadi.

Hozirgi kunda dolzarb bo'lgan ekspertiza yo'nalishlaridan yana biri muallif atributlarini aniqlashga qaratilgan ekspertizadir. Bu turdagi lingvistik ekspertiza yozma yoki og'zaki nutqni tahlil qilish orqali nutq egasini aniqlash jarayonidir. Bunday ekspertiza, asosan, adabiy asar yoki hujjatlarni tekshirish: biror asarning yoki matnning kimga tegishli ekanligini, masalan, plagiat holatlarini aniqlashda; sud-huquqiy maqsadlar: jinoyat ishlarida xat yozish yoki boshqa hujjatlarni tahrir qilishda kimning ishtirok etganligini aniqlashda; tilshunoslik tadqiqotlari: nutq uslubi orqali muallifning individual xususiyatlarini aniqlashda keng qo'llaniladi. Bu kabi ekspertiza jarayonlarida turli metod va usullardan foydalangan holda tadqiqot olib borish mumkin. Bunday metodlardan ayrimlarini quyida keltirib o'tamiz.

Stilistik tahlil. Muallifning yozish uslubi, til vositalarining ishlatilish xususiyatlari, sintaksis va leksik vositalardan foydalanishini tekshiradi..

Grammatika va imlo. Yozilgan asardagi imlo va grammatik xatolarni, ular bilan bog'liq muallifning xususiyatlarini tahlil qilib o'rganadi.

Shaxsiy xususiyatlar. Muallif uslubining o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari, masalan, muallifning qarashlari, so'z boyligi, frazeologik birliklar va boshqalarni saralab tekshiradi.

N.Vuds matn muallifining ma'rifiy darajasi va gender xosligini aniqlash uchun quyidagi lingvistik xususiyatlarni tahlil qilish lozimligini ta'kidlaydi:

"– muallif so'z boyligining xilma-xilligi;

– matnda ko'p komponentli so'z va birikmalardan foydalanish;

– kesimlardan foydalanish;

– nutqning sintaktik murakkabligi;

– nutqning bog'liqligi;

– nutqni qismlarga ajratish" [6. B. 149].

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib, ta'limning turli bosqichlariga xos (oliy, o'rta), yosh toifasi (kichik, o'rta, katta), gender xosligi bo'yicha (ayol, erkak) kabi turli ekspertiza yo'nalishlarini ko'rib chiqish mumkin bo'ladi.

Til va nutqdagi gender farqlar lingvistik ekspertiza doirasida turli jihatlardan o'rganiladi. Bu farqlar quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi. Ayollar nutqi odatda yumshoqroq va ohangdor, erkaklar nutqi esa pastroq va aniqroq talaffuz etiladi. Ayollar ba'zan o'z fikrlarini intonatsiya yordamida yumshatib ifodalashadi. Ular ko'proq ekspressiv so'zlardan foydalanishadi ("ajoyib", "nahotki" kabi). Erkaklar esa ko'proq texnik va aniq tushunchalarga asoslangan leksikani ishlatishi mumkin. Ayollar

ko‘proq bo‘yoqdor so‘zlarni qo‘llashga moyil bo‘lishadi. Erkaklar gaplarni qisqaroq va buyruq ohangida tuzishlari mumkin. Ayollar suhbati ko‘proq qo‘llab-quvvatlash, tasdiqlash va tushunish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Erkaklar esa aniq faktlarni keltirishga moyil bo‘lishadi. Rasmiy yozishmalarda gender neytrallik muhim sanaladi.

Lingvistik ekspertiza orqali matn yoki nutqning gender xususiyatlari aniqlanib, uning turli kontekstlardagi ta’siri o‘rganiladi. Bu, ayniqsa, sud ekspertizasi, huquqiy tahlil, psixolingvistika va ijtimoiy lingvistika doirasida muhimdir.

Yozishmalarni tahlil qilish jarayonida ayollar va erkaklar nutqi o‘rtasida juda ko‘plab farqlarni kuzatish mumkin. Biz yuqorida bularning ayrimlarini keltirib o‘tdik. Lingvistik ekspertizada gender farqlar nutq va matnlarda fonetik, leksik, morfologik hamda pragmatik jihatlarda namoyon bo‘ladi. Ayollar va erkaklar nutq uslubi, so‘z tanlovi, jumla tuzilishi va kommunikativ strategiyalar jihatidan farqlanishi mumkin. Bu farqlar ijtimoiy, madaniy va lingvistik omillar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Lingvistik ekspertiza tilni gender jihatdan o‘rganish, kommunikatsiyadagi muvozanatni ta’minlash hamda sud, huquq va psixolingvistika sohalarida muhim tahlillarni amalga oshirish uchun qo‘llaniladi. Shu sababli gender farqlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslikda, balki jamiyatdagi tenglik va adolat masalalarini hal qilishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Davlat tilining mavqeyi va nufuzining oshishida lingvistik ekspertiza muhim tadbir hisoblanadi. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish talabining kiritilishi davlat tiliga bo‘lgan e’tiborning belgisidir. Mazkur sohani rivojlantirish uchun nazariy, amaliy va uslubiy qo‘llanmalarga ehtiyoj kuchaymoqda. Hujjatlar matni, rasmiy va norasmiy yozishmalar, video va audioyozuvlar ustida olib boriladigan lingvistik ekspertiza tadqiqotlari mas’uliyat, chuqur bilim, malakani talab qiladigan jarayondir. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar, audioyozuvlar lingvistik ekspertiza o‘tkazishga muhtoj.

Lingvistik ekspertiza og‘zaki va yozma nutq mazmunini o‘rganish, ularda qonun buzilishlari bor yoki yo‘qligini aniqlash, tahdid, tuhmat yoki diskriminatsion mazmundagi ifodalarni aniqlash, mualliflikni tasdiqlash yoki inkor qilishda ishonchli natijalarni taqdim etishi bilan ahamiyatli.

Texnologik taraqqiyot va sun’iy intellektning rivojlanishi lingvistik ekspertiza jarayonlarini tezlashtirish va takomillashtirish imkonini beradi. Bu esa huquqiy tizimda dalillarni chuqurroq tahlil qilish va adolatni ta’minlashda ushbu yo‘nalishning ahamiyatini oshiradi.

Shunday qilib, lingvistik ekspertiza nafaqat ilmiy-amaliy tadqiqot sohasi, balki huquqiy, ijtimoiy va madaniy masalalarni hal qilishda asosiy vositalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu yo‘nalishning rivojlanishi adolatni ta’minlashga yordam berishi bilan birga tilshunoslikning jamiyatdagi amaliy ahamiyatini yanada oshirishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. *Баранов А.Н.* Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика. – Москва: Флинта, 2007. – 592 с
2. *Azimov I., Ro‘ziyev Z., Bobojonov F.* O‘zbek tilida lingvistik ekspertiza. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 47 b.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. /З.М.Маъруфов таҳрири остида. – Москва: Рус тили. 1981. – 632 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006. – 671 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2007. – 606 б.
6. *Woods N.* Talking shop: sex and status as determinants of floor apportionment in a working setting // Women in Their Speech Communities, 1989. – No 3. – Pp. 141–157.
7. *Дридзе Т.М.* Язык и социальная психология. – Москва: Высшая школа, 1980. – 224 с.
8. *Nurmonov A.* Lingivistik belgi nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 48 b.
9. *Сорокин Ю.А.* Психолингвистические аспекты изучения текста. – Москва: Наука, 1985. – 168 с.
10. Solan L.M., Tiersma P.M. The Oxford Handbook of language and low. – Oxford: Oxford university press, 2012. – 642 b.

LINGUISTIC EXPERTISE: THEORETICAL BASIS AND PRACTICAL APPLICATION

Bakhtiyorjon R. Akhmedov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 7(83). 94-99.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: forensic linguistics, psycholinguistic aspect, linguostatistical aspect, expert, speech stamp, stereotype.

The fact that the main attention in world linguistics is focused on the functionalization of the language leads to the strengthening of the research of the communication process at the intersection of person-speech in the context of space, time, situation, in general, extralinguistic and paralinguistic tools. Giving language to such a social influence, in turn, creates the problems of researching human speech, and in this regard, the clarification of the sociological, psychological, linguistic aspects of speech, as well as linguistic expertise, are of great importance for modern linguistics. In this article, the purpose, tasks and aspects of linguistic expertise are highlighted through various examples.

Checking oral and written texts that are the product of a specific speech for compliance with literary language standards, learning how the units used in the text express their meaning, meeting the requirements of the text, who they are aimed at, finding spelling and stylistic errors and giving explanations on how to correct them, the meaning of the text Linguistic expertise is the research carried out on the formal and substantive analysis of the text based on certain goals, such as revealing the meaning the consequences of speech activity.

To determine the level of profanity, we can pay attention to the following classification: a) morally civilized - like dirty, cursed; b) without moral culture - like shameless; c) related to animal names - such as dog, donkey, ox; These three types of swear words are related to the speech situation and purpose, and the strength or weakness of the sememe of the word sheds light on the issue. After all, the expert analysis of a linguist is considered important for situations such as discrediting a person in front of the community, using words that do not match his personality, and insulting his career, honor, and pride. And criminal or administrative responsibility will be initiated for this case.

In the process of analyzing correspondence, it is possible to observe many differences between women's and men's speech. We have mentioned some of them above. In linguistic examination, gender differences are manifested in speech and texts in various phonetic, lexical, morphological and pragmatic aspects. Women and men can differ in terms of speech style, word choice, sentence structure and communicative strategies. These differences are associated with social, cultural and linguistic factors, and in some languages are also reflected at the grammatical level.

Linguistic expertise is an important event in increasing the status and prestige of the state language. In particular, the introduction of the requirement for linguistic examination of draft normative legal documents is a sign of attention to the state language. The need for theoretical, practical and methodological guides for the development of this field is increasing. Linguistic expert research conducted on the text of documents, formal and informal correspondence, video and audio recordings is a responsible process that requires deep knowledge and skills. In particular, correspondence and audio recordings on social networks need linguistic examination. This, of course, is one of the important factors for increasing the status of the Uzbek language as a state language and gaining its place among world languages.

References:

1. Baranov, A.N. (2007). *Lingvisticheskaya ekspertiza teksta: teoriya i praktika*: Uchebnoe posobie [Linguistic examination of text: theory and practice: Textbook]. Moscow: Flinta.

2. Azimov, I., Ro‘ziyev, Z., Bobojonov F. (2023). *O‘zbek tilida lingvistik ekspertiza* [Linguistic expertise in the Uzbek language]. Tashkent: Bookmany print.

3. Ma'rufov, Z.M. (ed.) (1981). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. 1-jild [An explanatory dictionary of the Uzbek language. Volume 1]. Moscow: Rus tili.

4. Madvaliyev A. (ed.). (2006). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. 2-jild [An explanatory dictionary of the Uzbek language. Volume 2]. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

5. Madvaliyev A. (ed.). (2007). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. 4-jild [An explanatory dictionary of the Uzbek language. Volume 4]. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

6. Woods, N. (1989). Talking shop: sex and status as determinants of floor apportionment in a working setting. *Women in Their Speech Communities*. 3. P. 141-157.

7. Dridze, T.M. (1980). *Yazyk i socialnaya psihologiya* [Language and social psychology]. Moscow: Publisher, Vysshaya shkola.

8. Nurmonov, A. (2008). *Lingivistik belgi nazariyasi* [Linguistic sign theory]. Tashkent: Fan.

9. Sorokin, Y.A. (1985). Psiholingvisticheskie aspekty izucheniya teksta [Psycholinguistic aspects of text study]. Moscow: Nauka.

10. Solan, L.M., Tiersma, P.M. (2012). *The Oxford Handbook of language and low*. Oxford: Oxford university press.

Muallif haqida ma'lumot:

AHMEDOV Baxtiyorjon Ravshanbek o‘g‘li – Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: abaxtiyor308@gmail.com